



YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH DOLZARB MUAMMO SIFATIDA

Kuchkorova Ozoda G'ayrat qizi

Guliston Davlat Universiteti Pedagogika Fakulteti Pedagogika va
psixologiya yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7188254>

ARTICLE INFO

Received: 01st October 2022

Accepted: 05th October 2022

Online: 12th October 2022

KEY WORDS

oila, nikoh, tarbiya, oiladagi munosabatlar, axborot texnologiyalari, smartfonlar va gajtlarning oilaviy hayotga ta'siri. tibbiy ko'rrik, farzand tarbiyasi uchun ota-onaning mas'ulligi, ruhiy va sog'lom muhitni qaror toptirish

ABSTRACT

Ushbu maqolada yoshlarni oilaviy hayotga tayyor ekanliklari, oila muqaddas uni asrab avaylashlari, jamiyatda oilaviy nizolarning kelib chiqish sabablari yoritilgan

Kirish:

Yosh avlod-kelajagimiz poydevori. Yoshlarni ham jismoniy, ham ma'naviy sog'lom, barkamol shaxs qilib tarbiyalashda oiladagi ota-onaning o'rni, berayotgan tarbiyasi g'oyatda muhimdir.

Tarbiya bu-ostonadan boshlanadi. Oilada farzandning qay darajada tarbiya ko'riganligi, uni jamiyatdagi o'rnini egallashga yordam beradi yoki jamiyatdagi o'rnini belgilaydi.

Asosiy qism.

XXI asr Axborot texnologiyalari asri bo'lganligi sababli, ilm-fan, axborot - kommunikatsiya, kompyuter tizimlari, ijtimoiy va internet tarmoqlari jadal suratlar bilan yuqori ko'rsatkichlarda rivojlanib borayotganligi sababli hozirgi kunda jamiyatimizning ayrim jabhalarida oilaviy nizolar yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

.Buning natijasida insonlarning aql-zakovati, fikrlash qobiliyati, dunyoqarashi o'zgarmoqda.

Yoshlarimiz har sohada axborot texnologiyalaridan, internet tarmoqlaridan unumli foydalanmoqda. Lekin guruch kurmaksiz bo'lmaydi deganidek, hozirgi kunda ham juda ko'p vaqtini ijtimoiy tarmoqlarga sarflayotganlar safi ko'paymoqda. Jumladan; kitob o'qishni o'rniga qo'llarida eng oxirgi rusumdagagi mobil telefonlar, kunduz kunlari oila davrasida, ishda yoki ta'lim muassasalarida bo'lish o'rniga kompyuter xonalarda, dars tayyorlab, o'z ustida ishlab, o'qib -izlanib kelajagi uchun zamin yaratish o'rniga tungi klublar, barlar, turli xil ko'ngil ochar joylarda, inson salomatligi uchun zarar bo'lgan spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar iste'mol qilib, yakuni razolat bilan



tugaydigan ,boshi berk yo'llarga kirib ketishmoqda.

Buning natijasida, yoshlarimizda bиринчи navbatda yengil hayotga o'rganish ,besabrlik, ota -onaga bo'lgan hurmat,mehr-oqibat, ularga qaratilayotgan e'tibor, hayotda o'z o'rнini yo'qotish "VATAN" nima ? "OILA " nima ?ekanligini kech anglab yetishadi.Afsuski unda umr yo'llari izdan chiqishgan bo'ladi.

Jamiyatning muhim bo'gini bo'lgan "Oila ", "Nikoh" tushunchalari oiladagi muhitga va unda kechadigan jarayonlarga,oilaviy munosabatlarga moslashishga qiynalishadi.Hozirgi kunda jamiyatda oilaviy nizolarning soni ortib bormoqda ,bunga sabab yoshlarni oilaviy hayotga tayyor emasligi hamda oiladagi tarbiyaning yaxshi emasligi.Shuningdek,mustahkam oilalarni shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri bu- oila quruvchi yigit va qizlarni mustaqil oilaviy hayotni tashkil etish, oilada, ruhiy va sog'lom muhitni qaror toptirish,oila muqaddas uni asrash haqida, farzand tarbiyasini samarali tashkil etish jarayonlariga muvafaqqiyatli tayyorlashdir.Mazkur jarayonning mohiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi :

Birinchidan,yoshlarda nikoh hamda oilaviy hayot, shuningdek ikki jins o'rtasidagi munosabatlar to'grisida tushunchalar hosil qilish;

Ikkinchidan,ularni nikoh hamda oilaviy hayotni tashkil etish jarayoniga ruhiy, jismoniy, psixologik jihatdan tayyorlash; Uchinchidan,yoshlarda nikohga kirish hamda oilaviy hayotni tashkil.etish (oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni tashkil etish qaynota ,qaynona,qaynisingil,qaynog'alar bilan)munosabatlarni yo'nga qo'yilishi ,oilaviy xo'jalikni boshqarish, pazandalik, bichish ,tikish,ibo -hayo, farzand

tarbiyasi,pokizalik,saramjon-sarishtalik jarayonlariga e'tibor berish hamda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

Yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash borasida bir qancha muammolar mayjud bo'lib,ular quyidagilar:

-ota-onalarning oilada yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonidagi to'la ma'lumotga ega emasliklari,

-yigit va qizning oila, nikoh va oilaviy munosabatlar haqidagi tushunchalarga ega emasliklari,oilani moddiy jihatdan ta'minlash, erkak kishining burchlaridan biri ekanligi,

-farzandlar tarbiyasi uchun ota-onas mas'ul ekanligi,

-kelin va kuyov ham jismoniy ham ruhiy sog'lom bo'lishi va ular o'rtasida bo'ladigan munosabatlarining mazmunini ularga anglatish.

Nikohdan oldin kelin va kuyov tibbiy ko'rikdan o'tish jarayoni bu tabiy holatdir.Lekin shu holatni ham qalbakilash tirayotganlar ham yo'q emas.Natijada oilada sog'lom muhit yo'qoladi.Ulardan dunyoga keladigan farzandlar yo nogiron,yo kasal bo'lib tug'ilishadi.Bu esa oilaning tanazzulga uchrashi ,qaynona bilan kelinning munosabati yomonlashishiga, oilada nizolarning kelib chiqishiga,oxir-oqibat farzandlarning tirik yetimga aylanishiga olib keladi.Ota-onasiz voyaga yetayotgan, oila nima ekanligini, ona mehri, ota tarbiyasisiz ulg'ayotgan farzandlarning taqdiri qandey bo'lishi esa hammaga kunday ravshandir.

Xulosa qilib aytganda o'sib kelayotgan yosh avlodni, oilaviy hayotga tayyorlashda, oiladagi ota-onaning berayotgan tarbiyasi va uning ro'li juda muhimdir.Chunki oilada kelib chiqadigan nizolarning aksariyati, yoshlarni oilaviy hayotga tayyor



emasliklari, nikoh va oila haqidagi tushunchalarning mavjud emasligi, hayotga oddiy nazar bilan qarash asosiy vositaga aylanmoqda. Shuning uchun biz yoshlar albatta ota-onan tomonidan berilayotgan tarbiyani to'g'ri qabul qilish, oila muqaddas

dargoh, uni asrab avaylash, oilada o'z o'rnimizni topishda bilim , malaka va ko'mikmalarni egallash lozimdir.

References:

1. Захаров Ю.А. Основные пути повышения качества высшего образования / Ю.А.Захаров, В.А.Москинов // Университетское управление. - 2005. - № 1(34).
2. Сенашенко В. Болонский процесс и качество образования / В.Сенашенко, Г.Ткач // ALMA MATER Вестник высшей школы. - 2003. - № 8.
3. Ерматов И. Т. К проблеме качества образования в высшем образовательном учреждении. Сборник материалов 1 Международной научно – практической конференции «Актуальные проблемы внедрения инновационной техники и технологий на предприятиях по производству строительных материалов, химической промышленности и в смежных отраслях». Фергана, 24 – 25 мая 2019 года, 2 – том, стр. 541 – 544.
4. Исманов И. Н., Ерматов И. Т., Фарфона политехника институтида сифатли таълимни ривожлантириш масалалари. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, Том 1, № 2, стр. 39 – 51. Издатель ООО «AL-FERGANUS»
5. Ерматов И. Т., Таълим сифатини оширишга қаратилган маъёрий ҳуқуқий ҳужжатлар ва уларни таълимда илғор педагогик технологияларни қўллашнинг айrim масалалари. “Кими, озиқ-овқат ҳамда кимёвий технология маҳсулотларини қайта ишлшдаги долзарб муаммоларни ечишда инновацион технологияларнинг аҳамияти” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами. 2021 йил 23-24 ноябрь, 227-229 бетлар. Наманган – 2021й.